

**YO‘L-PATRUL XIZMATI XODIMLARINING SHAXSLARARO  
MUNOSABATLARIDA KASBIY KOMPETENTLIGINING  
O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

***Xushvaktov Erkin Temirovich***

*IIB malaka oshirish instituti katta o’qituvchisi*

Mamlakatimiz tinchligi va osoyishtaligini ta’minalash, jamiyatda adolat hamda qonun ustuvorligiga erishish yo‘l-patrul xizmati xodimlaridan ham alohida mas’uliyat talab qiladi. Chunki yo‘l harakati xavfsizligini ta’minalash faoliyati xodimlardan irodaviy zo‘r berishni, aqliy jiddiylikni, chidam va sabr-toqatni talab qiladi.

Yo‘l-patrul xizmati xodimlari faoliyatining psixologik jihatlarini tahlil qilish, o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish va uni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish va yo‘lga qo‘yish – bugun davr talabiga aylangan. Zero, yo‘l harakati qatnash-chilarining, avvalo, amaldagi qonunchilikka, qolaversa, yo‘l harakati qoidalariga rioya etishi ustidan nazoratni amalga oshirish yo‘l-patrul xizmati xodimlaridan chuqur psixologik bilimlarni ham talab qiladi. Bu esa kasbiy psixologik bilimlarni, faoliyatda yuz beradigan psixik hodisalar (ruhiy holatlar va jarayonlar, psixologik xususiyatlar)ni yaxshi bilish, ularga qarshi doimo tayyor turishni taqozo etadi.

YPX xodimlari faoliyatida kuzatuvchanlik xodim tomonidan avtotransport vositasini boshqarib kelayotgan haydovchi va yo‘lovchilarning xulqi hamda avto-transport vositasin ing texnik holati vizual kuzatiladi.

Muntazam yo‘l-patrul xizmati maskanida avtotransport vositasini tekshirishga sabab bo‘luvchi holatlar asosan ushbu metod yordamida aniqlanadi. Ya’ni harakatlanib kelayotgan avtotransport vositasi o‘zining harakatlanish bo‘lagidan chetga chiqib, imkon qadar YPX xodimining nazariga tushmaslik uchun boshqa transport vositasining ortiga yashirinishga harakat qiladi; haydovchidagi asabiylashish holatlari (masalan, sigaretni tez-tez tortib, kulini tashlashi, yon-atrofga tez-tez qarashi, transport vositasining tashqi yoritish asboblari, old oyna tozalagich qurilmasini besabab ishlatib yuborish kabi) yuzaga keladi; harakatlanib kelayotgan transport vositasining YPX maskaniga yaqinlashgan vaqtida besabab tezlikni belgilangan darajadan sekinlatib yuborishi yoki maskanga etmasdan biroz to‘xtab qolishi kabi holatlarga e’tibor qaratish kerak.

Yo‘l-patrul xizmati faoliyati muntazam yo‘l-patrul xizmati maskanida portlovchi moddalar, o‘qotar qurollar, giyohvandlik vositalari, diniy ekstremizm va missionerliklarni targ‘ib qiluvchi adabiyotlar, audio-video mahsulotlar hamda boshqa erkin muomalasi cheklangan noqonuniy buyumlarni olib o‘tuvchi shaxslar, avtotransport vositalarida ularni yashirish mumkin bo‘lgan xufiya joylar va ularni

aniqlashda qo'llaniladigan kuzatuvchanlik yo'l-patrul xizmati xodimining asosiy kaspiy kompetentligidan darak beradi/

Umuman olganda yo'l-patrul xizmati xodimi muntazam yo'l-patrul xizmati maskanida avtotransport vositalari va hujjatlarni tekshirish, ko'zdan kechirish, haydovchi va yo'lovchilar bilan muloqotga kirishishda zamonaviy psixologiyaning bir qancha metodlaridan unumli foydalanishiga to'g'ri keladi.

Yo'l-patrul xizmati xodimining muloqotga kirishish qobiliyati ya'ni Suhbat. Bunda avtotransport vositasi haydovchisi bilan xizmat yuzasidan bo'ladigan muloqotida namoyon bo'ladi. U avtotransport vositasi haydovchisiga o'zini tanishtiradi, avtotransport vositasini to'xtatishga sabab bo'lgan holatni bayon qiladi, avtotransport vositasiga egalik qilish va boshqarish huquqini beruvchi hujjatlar, transport vositasining sug'urta polisi, texnik ko'rikdan o'tkazilganligi, olib ketilayotgan yuk uchun yo'l hujjatlarini taqdim etishni so'raydi.

Suhbat davomida haydovchi tomonidan avtotransport vositasini boshqarishdagi qoidabuzarliklar, hujjatlaridagi kamchiliklarni yashirishi oqibatida turli nostandard vaziyatlar kelib chiqishi mumkin. Masalan, xodim bilan nizoli vaziyatga borish, xodim tomonidan qoidabuzarlik bo'yicha qo'yilayotgan aybga iqror bo'lmaslik, hujjatlarni taqdim etmasdan turli bahonalarni ro'kach qilish, xodimning diqqatini bo'lish maqsadida o'zini betob tutishi kabi holatlar yuzaga keladi. SHuningdek, haydovchi o'zini juda samimiylar, xushmuomala tutishi, xodim tomonidan u yo'l qo'ygan qoidabuzarlik harakatlari bayon qilinganda, xodimga nisbatan o'ta itoatkor bo'lishi, hujjatlarni taqdim etib tezroq voqeа joyidan ketishga urinish kabi holatlar ham kuzatiladi.

YPX inspektori tomonidan avtotransport vositasi to'xtatilganda, haydovchiga farmoyishlar qisqa va aniq berilishi kerak. Lekin haydovchi yoki yo'lovchilar jinoyat sodir qilishda yoxud yo'l transport hodisasiga guman qilinayotgan bo'lsa, transport vositasining to'xtatilish sababi yashirilishi kerak. Bunday vaziyatda YPX xodimi haydovchi bilan muloqot qilishga vaj topishi, chalg'ituvchi savollar bilan suhbatni cho'zib turishi tavsiya etiladi.

Xodim tomonidan beriladigan savollar taxminan quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

- 1) Negadir toliqkan ko'rinasiz?
- 2) Muntazam yo'l patrul xizmati maskaniga 5 km yetmasdan yo'lda buzilgan avtotransport vositasini ko'rdingizmi?
- 3) Mehmondorchilikka ketyapsizlarmi?
- 4) Mashinangizning shinalari chiroyli ekan, necha pulga oldingiz?
- 5) Bir tanishimga juda ham o'xshab ketar ekansiz va hokazo.

Ma'lumot olish jarayonida haydovchining berilgan savollarga izchil, aniq, mantiqan to'g'ri, xotirjam javob berishi hisobga olinishi kerak. Ayrim holatlarda haydovchilarning umumiy fiziologik va ruhiy holatidagi nomutanosiblik boshqa yo'naltiruvchi hamda aniqlashtiruvchi savollarning berilishiga asos bo'lishi mumkin. Savollar "ha" yoki "yo'q" tarzida javob berish mumkin bo'limgan ochiq savollar bo'lishi kerak.

Fiziologik va ruhiy holatdagi nomutanosiblik quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- sovuq havo vaqtida ham haydovchining terlashi;
- so'zlarni uzuq-yuluq ifodalashi;
- o'zini yupatishga qaratilgan harakatlar (qo'llarini, bo'yin qismi, boshning bo'yin va ensa qismini silash;
- mudofaa pozitsiyasiga o'tib olish;
- ko'p yutinish;
- og'iz hamda burun qismini tez-tez artish.
- Yo'l-patrul xizmati faoliyati psixologiyasi kursining asosiy vazifasi turli toifadagi yo'l harakati qatnashchilarining xulq-atvori, xatti-harakatlari va ichki histuyg'ularini o'rghanishdan iborat.
- Muntazam yo'l-patrul xizmati maskanida portlovchi moddalar, o'qotar qurollar, o'q-dorilar, giyohvand vositalar va psixotrop moddalarning avtotransport vositalarida olib o'tayotganligi to'g'risida shubha uyg'otgan yoki tanlov asosida to'xtatilgan avtotransport vositalari maxsus o'rgatilgan xizmat itlari bo'lgan inspektor-kinolog, YPX xodimi, hududiy IIB xodimi, avtomat bilan xizmat olib boruvchi xodim va 2 nafar xolis ishtirokida tekshiriladi. Bunda avtotransport vositasini tekshirishga umumiy rahbarlikni YPX maskanida xizmat o'tayotgan rahbar amalga oshiradi.
- Yo'l-patrul xizmati faoliyati psixologiyasi kursini o'rghanish jarayonida quyidagi omillarga alohida e'tibor qaratish muhim:
  - jinoyatchilikning oldini olish;
  - jinoyatchilikni batamom tugatish;
  - yuridik shaxslar o'rtasida muloqot madaniyatini shakllantirish;
  - fuqarolarning huquqiy bilimdonligini oshirish;
  - inson omilini birinchi o'ringa olib chiqish.
- Shu bilan birga, bo'lg'usi yo'l-patrul xizmati xodimlarini zamonaviy psixologik bilimlar bilan quollantirish; kasbiy vazifalarni hal etishda olingan nazariy bilimlardan mohirona foydalanish va ularni hayotga, amaliyotga tatbiq etish; xodimda mutaxassisligiga xos zamonaviy kasbiy fazilatlarni har tomonlama shakllantirish; yo'l-patrul xizmati yo'nalishida ta'lim olayotgan kursantlarning kasbiy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish; kasbiy sezgirlik, xotira, tafakkur, yo'l harakati qatnashchilarini bilan muloqotda bo'lish va psixologik aloqa o'rnatish mahoratiga ega bo'lish.

**Xulosa**

Yo‘l-patrol xizmati xodimlari faoliyatining psixologik jihatlarini tahlil qilish, o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish va uni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish va yo‘lga qo‘yish – bugun davr talabiga aylangan. Zero, yo‘l harakati qatnash-chilarining, avvalo, amaldagi qonunchilikka, qolaversa, yo‘l harakati qoidalariga rioya etishi ustidan nazoratni amalga oshirish yo‘l-patrol xizmati xodimlaridan chuqur psixologik bilimlarni ham talab qiladi. Bu esa kasbiy psixologik bilimlarni, faoliyatda yuz beradigan psixik hodisalar (ruhiy holatlar va jarayonlar, psixologik xususiyatlar)ni yaxshi bilish, ularga qarshi doimo tayyor turishni taqozo etadi.

**ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.:“O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 486 bet
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. -T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. –103 bet
3. Arifxodjaeva I. X. Ichki ishlar organlari xodimlari psixologiyasi. – T., 2007.
4. Asyamov S.V., Pulatov Yu.S. Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy-psixologik treningi. – T., 2002.
5. Аванесов Г. А. Криминология и социальная профилактика. – М., 1980.
6. Ismailov I. Jinoyatchilikda uyushganlikning oldini olishni huquqiy ta’minalash. – T., 2007.
7. G‘oziyev E. G‘. Umumiy psixologiya. – T., 2002.